

“QUTADG ‘U BILIG”DAGI FRAZEMALARNING STRUKTUR – GRAMATIK XUSUSIYATLARI

Abdullayeva Vazira Quronovna

Qo‘qon Universiteti katta o‘qituvchisi

abdullayeva16@gmail.com Tel: 93-0434579

Annotatsiya Tarixiy-badiiy yozma manbalar til taraqqiyotining oynasi hisoblanadi. O‘zbek tilshunosligida tilning tarixiy xususiyatlarini aniqlashga qadimgi yozma manbalar va yodgorliklarni o‘rganish orqali erishiladi. Tilshunoslik tarixini o‘rganib borish zamonaviy tilshunoslikning oldidagi bir qator muammolar yechimini topishda ko‘mak beradi. Ma‘lumki, “Qutadg‘u bilig” asari XI asrda yozilishiga qaramay, unda til xususiyatlari zamonaviy tilshunoslik bilan hamohangdir. Ushbu maqolada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarini leksik xususiyatlari va frazemalarni o‘rganish orqali asarni tilshunoslik jihatlarini tahlil qilindi. Qutadg‘u bilig” asarini adabiy qarashlar nuqtayi nazaridan juda ko‘plab xorij olimlari o‘rgangan. Tilshunoslik nuqtayi nazardan ham bir qator izlanishlar amalga oshirilgan. Xususan, “Qutadg‘u bilig” asarining leksik xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *til xususiyatlari, leksik xususiyat, frazeologik birliklar, so‘z, ibora, turg‘un ibora, frazema, ko‘chma ma‘noli so‘z, leksika*

Аннотация: История – это прелюдия к сегодняшнему дню. В узбекском языкознании исторические особенности языка определяются путем изучения древних письменных источников и памятников. Изучение истории языкознания помогает найти решение ряда проблем, стоящих перед современным языкознанием. Известно, что, несмотря на то, что произведение «Кутадгу билиг» было написано в XI веке, его языковые особенности находятся в гармонии с современным языкознанием. В данной статье лингвистические аспекты произведения Юсуфа Хоса Хаджиба «Кутадгу Билиг» были проанализированы путем изучения лексических особенностей и идиом. Многие зарубежные ученые изучали с точки зрения литературных взглядов произведение «Кутадгу Билиг». Это требует ряда исследований с точки зрения лингвистики. В частности, исследование проводилось на основе лексических особенностей и фразеологических сочетаний произведения «Кутадгу Билиг».

Kirish. Jahon tilshunosligida badiiy asarlarning til xususiyatlarini o‘rganish, asar leksikasini tahlil qilish muhim sanaladi. Tilshunoslikda til hodisasini tarixiy aspektida o‘rganishda nodir manbalarga asoslanish, manbalarning tilini qiyosiy jihatdan o‘rganish, til birliklarining ma‘nolari taraqqiyotini kuzatish hozirgi lingvistik jarayonlar etimologiyasini ochib berishga qaratilgan tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Darhaqiqat, “O‘zbek tili va adabiyoti, folklorining tarixan shakllangan adabiy, lingvistik maktablari va ta’limotlarining, mumtoz va zamonaviy metodlarini, buyuk ajdodlarimizning o‘zbek va jahon tilshunosligi rivojiga qo‘shgan hissasi, ularning ilmiy merosi, ona tilimizning xalqaro miqiyosdagi o‘rni va nufuzi, uning boshqa tillar bilan aloqalari, o‘zbek tili va adabiyotining rivojlanish istiqbollari bilan bog‘liq ilmiy muammolarini tadqiq etish” dolzarb ahamiyatga ega.¹

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar orqali qadimiy manbalarni mukammal o‘rganish muhimdir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 -yil 24-maydagi PQ - 2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-radbiirlari to‘g‘risida”gi qarori(“Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil 25-may) asos bo‘ladi. Qolaversa, “Qutadg‘u bilig” asarining yaratilganiga 2019 - yil 950 yil to‘lganligi munosabati bilan YUNESKO tomonidan alohida e’tirof etilishi bu manbaning jahon madaniyatida g‘oyat qadrli ekanligini ko‘rsatadi.

Ushbu ilmiy maqolada XI asrda yashab, ijod qilgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari va uning til xususiyatlari, aynan asar suyijetini yaratishda frazemalarning o‘rni va semantik ma‘nolari tahlil qilindi.

Ma‘lumki, tarixiy tilshunoslikning asosiy maqsadi har bir davr tilining muhim jihatlarini ochib berishdan iboratdir.

Frazemalarda birdan ortiq so‘zlar bir yaxlit ma‘noni bildiradi. Ikki va undan ortiq so‘zdan tarkib topgan, yaxlit bir ko‘chma ma‘no ifodalaydigan, ta’sirchanlikka ega bo‘lgan va ma‘nosi bir so‘zga teng keladigan so‘zlar yoki gaplar frazeologik birlik deyiladi.²

“Qutadg‘u bilig” dostonida barqaror birikmalar maqol va matal shaklida qo‘llangan. O‘rganish jarayonida garchi “Qutadg‘u biig” asarining yozilishi tarixan uzoq davrlarga borib taqalsa-da, hozirgi kunda ham tushunish mumkin bo‘lgan bir butun yaxlit ma‘noni bildiruvchi til birliklari – frazemalar keng qo‘llangani kuzatildi. Shuni alohida aytish mumkinki, “Qutadg‘u bilig” manidagi ko‘pgina frazemalar hozirgi kunda ham o‘zgarishlarga uchramagan holda faol qo‘llanib kelmoqda. Asarda yaxlit ma‘noni bildiruvchi so‘zlar ma‘no va mazmunni kuchaytirib berish uchun xizmat qilgan. Shu boisdan ushbu asarning leksikasini, frazemalarini o‘rganish bugungi kun tilshunosligi ichun dolzarb hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Frazeologik birliklar shakllanib, rivojlanib bormoqda, tilshunoslikning alohida sohasi sifatida frazeologizmlar bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilgan.

¹ Холманова З. Бобурнома – тил қомуси. – Тошкент: Akademnashr, 2021. – В.3.

² Hamrayev M. Ona tili. Qo‘llanma va mashqlar to‘plami, 2016. – В.96.

Jahon tilshunosligida hamda o'zbek tilshunosligida frazeologizmlar yuzasidan bir qator tilshunos olimlar ilmiy faoliyat olib borganlar. Xususan, jahon tilshunosligida V.V.Vinogradov, N.N.Amasova, A.V.Kunin, N.M.Shanskiy, O.S.Axmanova, A.Bushin rus tilshunoslari frazeologik birliklarni semantik hodisa ekanligini e'tirof etadilar.

Turkologik tadqiqotlar yuzasidan Z.G.Uransin, T.A.Bayramov, F.A.G'aniyev, G.X.Axuniyazov, M.F.Chernovlar, hozirgi o'zbek tilshunosligida Sh.Raxmatullayev, B.Yo'ldashev, A.Mamatov kabi tilshunoslar frazeologik birliklar yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar.

“Qutadg‘u bilig” asaridagi shaxs belgi-xususiyatini anglatuvchi leksikani maxsus o‘rganishni F.Abdujabborova amalga oshirdi. M.Xolmurodova “Qutadg‘u bilig” asarining til xususiyatlarini leksik-semantik jihatdan tahlil qilgan.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida qo‘llanilgan so‘zlarning semantik xususiyatlarini ilk marotaba Y. Klaprot o‘rganib chiqdi. Asar leksikasining semantik, morfologik xususiyatlari yuzasidan E.Bertels, A.Valitova, A.Bombachi, I.Steblevalar ilmiy izlanishlar olib borganlar. B.To‘xliyev, X.Abdullayev, S.Ibotov, Z.Sodiqova, D.Toshpo‘latovalar “Qutadg‘u bilig” asarini adabiyotshunoslik masalalari yuzasidan o‘rganganlar. “Qutadg ‘u bilig” asari nemis, ingliz, qozoq, qirg‘iz tillariga o‘girilgan. Xususan, V.V.Radlov nemis tiliga, R.R.Arat turk tiliga, R.Dankoff ingliz tiliga tarjima qilgan. Z.Y.Sodiqov asarning nemis va ingliz tilidagi tarjimalari qiyosiy tahlilini amalga oshirdi.

“Qutadg‘u bilig” asarini keng ommaga yetkazishda Abdurauf Fitratning alohida xizmatlari bor. Asarni tabdil qilishga Q.Karimov 1971- yil qo‘l urdi. Q.Karimov, B.To‘xliyev, H.Dadaboyevlar tomonidan “Qutadg‘u bilig” asarining 5 jildlik ilmiy-tanqidiy matni tayyorlandi. B.Nazarov Indiana universitetida o‘tkazilgan konferensiyada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari didaktikasining ahamiyati yuzasidan Aristotel va Suqrotga tenglashtirilganligini ma‘lum qilgan edi.

M.Xolmurodova tomonidan “Qutadg‘u bilig” asari leksikasining muhim uslubiy-semantik xususiyatlari o‘rganilgan, leksik birliklarning muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslab berilgan. Yuqorida qayd etilgan izlanishlarda “Qutadg‘u bilig” asari tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik masalalari nuqtayi nazaridan tahlil qilingan.

“Qutadg‘u bilig” asarini o‘rganish davomida asarda qo‘llanadigan frazeologik birliklar alohida tadqiqotni talab qilishi ma‘lum bo‘ldi.

“Qutadg‘u bilig” asarida 3370 ta leksema bo‘lib, 2817 tasi turkiy, 416 tasi arabcha, 7 tasi sanskritcha, 7 ta so‘g‘dcha, 6 tasi xitoycha, 13 tasi gibrid so‘z, 7 tasi arab+forscha, 2 tasi arab+yunoncha, 2 tasi sanskritcha+forscha, 1 tasi forsha + hindcha, 1 tasi arab+lotincha birlik ekanligi aniqlangan. Jami leksemalarning 2500 tasi ism kategoriyasiga, 870 tasi esa harakat-holat kategoriyasiga mansubligini³ ko‘rish mumkin. ⁴

³ Холмуродова М. Ф. “Қутадғу билиг” лексикаси. Филол. фан. б. фалс. док.(PhD) ... дисс. –Тошкент, 2019.

⁴ Холмуродова М. Ф. “Қутадғу билиг” лексикаси. Филол. фан. б. фалс. док.(PhD) ... дисс. –Тошкент, 2019.

Bunda asardagi o‘z va o‘zlashgan leksikasi statistik jihatdan tahlil qilinib, leksemalarning atash ma‘nosidan tashqari emotsional - ekspressiv vazifalarda kelishi, ko‘chma ma‘noga ega bo‘lgan so‘zlar tahlil qilingan. Asardagi bu kabi tahlil orqali hozirgi o‘zbek adabiy tilining yuzaga kelishiga asos hisoblangan qadimgi turkiy tilning ichki va tashqi imkoiyatlarini ochish mumkin bo‘ladi.

“Qutadg‘u bilig” asarini tahlil qilish jarayonida asar matnining leksik xususiyatlari bilan bir qatorda frazemalarning ham alohida funktsiya bajarganini ko‘rish mumkin.

Frazemalar garchi qadimiy davrlarda shu nom bilan atalmagan bo‘lsa-da, asarda bu kabi turg‘un birlikma bo‘lib kelgan hamda ko‘chma ma‘noga ega bo‘lib kelivchi birliklarning qo‘llanishi har bir xalq tilida yuzaga kelgaligini ko‘rsatadi.

Xusasan, I.A.O‘razova XIV asrning II yarmiga oid turkiy yozma manbalarda frazemalarning qo‘llanishi yuzasidan “XIV arning II yarmiga oid turkiy yozma manbalardagi frazemalar tadqiqi” mavzusida ilmiy tadqiqot ishi olib borgan. I.O‘razova mazkur ilmiy izlanishlarida Munis Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Sayfi Saroyining “Suhayl va Guldursun”, “Guliston bit-turkiy” asarlarida frazemalarning qo‘llanilishi jihatdan o‘rganib chiqdi. I.Orazova mazkur dissertatsiya ishida “Gulistoni bit-turkiy” asari, Xorazmiyning “Muhabbatoma”, “Surhayl va Guldursun” va “Mushoira” asarlaridagi frazemalarni statistik, semantik va grammatik tomonlarini diaxron aspektida ilk bor o‘rganib tadqiq qildi. Albatta, I.O‘razovanning bu dissertatsiyasini tilshunoslikda ilmiy jihatdan yangi tadqiqot, deyish mumkin. Dissertatsiyada frazemalarning komponent xususiyatiga ko‘ra guruhlarga bo‘lib o‘rganganilgani alohida yondashuv sifatida baholanishi mumkin.

Frazemalar xususiyati jihatidan bir qancha komponentdan tashkil topgan bo‘ladi. I.Orazova mazkur dissertatsiya orqali XIV asarda yozilgan asarlarda frazemalarning faol qo‘llanganini ko‘rsatib berdi.

O‘zbek tilshunosligida Abdulla Qodiriy, Albuhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, S.Ayniy, A.Qahhor, Hamid Olimjon hamda Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburning asarlaridagi qo‘llangan frazemalar ham ilmiy jihatdan tadqiq qilingan. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar tarixiy asarlardagi frazemalarni o‘rganishda manba va metodologik asos vazifasini o‘taydi.

Shunga ko‘ra XI asrning nodir namunasi hisoblangan “Qutadg‘u bilig” asarining til xususiyatlarini o‘rganishda frazemalarni tadqiq qilish muhim sanaladi.

B.Yo‘ldoshev o‘zbek mumtoz adabiyotining ko‘p asrlik yozma an‘analari, Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulg‘ozi Bahodirxon, Gulxaniy, Munis, Lutfiy, Muqimiy, Furqat, Avaz O‘tar, Zavqiy kabi namoyandalarning asarlari o‘zbek tarixiy frazeologiyasi uchun boy material berishini e‘tirof etgan edi.

O'zbek tilshunosligida tarixiy frazemalarni o'rganish va tadqiq qilish, ommalashtirish borasida bir qator muammolar mavjud⁵.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ilmiy maqoladagi ma'lumotlarni keltirishda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari obyekt qilib olindi. Mazkur asardagi frazeologik birliklarni tahlil qilishda bevosita kuzatish, tahlil qilish, qiyoslash, komponent tahlil metodlaridan foydalanildi. Tahlil davomida "Qutadg'u bilig" asaridagi baytlar tabdili va transkripsiyasiga tayanildi.

Tahlil va natijalar. Jahon tilshunosligida "Qutadg'u bilig" asari XVII asrning oxiri va XIX asrning boshlaridan o'rganila boshladi. Asar XI asrning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, turkiy xalqlarning tili, turmush tarzi haqida ma'lumot beradi. Tarixiy ma'lumotlar asosida qurilgan til birliklari va qurilmalarda tilga oid bilimlarni tadqiq qilish kerakli bilimlarni taqozo etadi.

Frazeologik birliklarni badiiy matnda qo'llash juda murakkabdir. Bu birliklarning mazmun tarkibida ham frazeologik butunlik sifatidagi, ham uslubiy ma'nolari mavjud. Badiiy matnda umuman, yozma va og'zaki matnlarda frazeologizmlar qo'llanganda, bu birlik bir qator vazifalarni bajaradi.

Frazeologizmlar narsa-hodisalar, voqealar, xarakterlarni obrazli, ekspressiv ifodalash ehtiyoji asosida yuzaga keladi. *Frazeologiya* atamasi grek tilidan olingan bo'lib, "phrseos", "logos" so'zlaridan tashkil topgan, "ifoda" degan ma'noni bildiradi. Tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida frazeologiyani asosiy diqqat - e'tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o'rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo'llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Ma'lumki, frazeologizmlar tarkibida nechta so'z bo'lishidan qat'iy nazar ular yagona umumiy ma'no bilan birlashadi va emotsional-ekspressiv funktsiya bajaradi.

Frazeologiyani eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan so'z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir. Umumiy tilshunoslik nuqtayi nazardan frazeologik birlik deganda semantik jihatdan bir-biriga tobe bo'lgan (ya'ni erkin bo'lmagan), nutq jarayonida so'zlovchi tomonidan erkin so'zlarni bir-biriga qo'shish yo'li bilan tuzilmaydigan, til leksikonida tayyor holda mavjud bo'lgan va jamiyat tomonidan belgilangan barqaror ma'noga ega bo'lgan ma'lum bir leksik-grammatik tuzilma, birlik tushuniladi.⁶

"Qutadg'u bilig" asaridagi frazemalarni struktural va semantik xususiyatlarga ko'ra guruhlarga bo'lish mumkin. Asarda holat semalari va harakat semalarini bildiruvchi frazemalar mavjudligi kuzatildi.

⁵ Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик birlikларнинг функционал - услубий хусусиятлари. Филол. фан. док. ... дисс.—Тошкент, 1993.— Б.37

⁶ Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Yangi avlod, 2008. – B. 214.

Shu jihatdan “Qutadg‘u bilig” asaridagi frazemalarni tahlil qilishda ikki jihatiga ahamiyat qaratildi:

- 1) frazemalarning struktur – tarkibiy xususiyatlari;
- 2) frazemalarning semantik xususiyatlari.

“Qutadg‘u bilig” asaridagi frazemalar struktur jihatdan quyidagi so‘z turkumlar asosida shakllangan:

1) frazema tarkibida fe‘lning ishtirok etishi asosida shakllangan: bunday iboralar gapga teng keladi;

2) frazema tarkibida ot ishtirok etadi: bunday frazemalar so‘z birikmasi ko‘rinishida shakllanadi;

3) frazema tarkibida ravish ishtirok etadi: bunday frazemalar ham so‘z birikmasi ko‘rinishida shakllanadi;

4) frazema tarkibida sifat ishtirok etadi: bunday frazemalar so‘z birikmasi va gap ko‘rinishida shakllanadi.

“Qutadg‘u bilig” asaridagi frazemalarning shakllanishida frazemalarning tarkibi, asosan, inson tana a‘zolari asosida yuzaga kelganligini kuzatish mumkin. Tilshunoslikda frazemalarning tarkibida inson a‘zolarini keltirilishi nafaqat qadimda, balki hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham uchraydi.

1. Fe‘l komponentli frazemalar asar matnida 60 foizni tashkil qiladi.

Misol:

Qalīq qashī tugdi, kōzi yāsh sachar

Chəchək yazdi yuz, kər kȳler qatg‘urar [78-qator,74-bet]

Ma‘nosi:

Osmon qovog‘ini soldi, ko‘zidan yosh sochmoqda,

Gullar yuz ochdi, boq, kulmoqda, qax-qaxlamoqda.

Ushbu baytda keltirilgan **qalīq qashī tugdi** – fe‘l komponentli frazema, __qashī – qavoq – inson a‘zolari asosidagi birliklarda ifodalanagan.

Kōzi yāsh sachar; Chəchək yazdi yuz – fe‘l komponentli frazema, *kōzi* – inson a‘zolari asosidagi so‘zdan foydalanilgan, gap shaklida ifodalangan.

Misol:

Bāshīññi tilese tiliññi kōdēz,

Tiliñ tēkmə kyde bashīññi yəyur

Ma‘nosi:

Boshim osmon bo‘lsin desang, tilingni ehtiyot qil,

Tiling istagan kun boshingni yeydi.

Ushbu baytda keltirilgan *Bāshīññi tilese tiliññi kōdēz* – frazema, *fe‘l komponentli frazema*, *bosh* – inson a‘zosi asosida hosil bo‘lgan;

Tiliy tækmæ kydæ bashlïññĬ yæyur – frazema, fe‘l komponentli frazema, bosh-inson a‘zosi asosida hosil bo‘lgan.

2. Ot komponentli frazemalar asar matnida 20 foizni tashkil qiladi.

Næku tæp æshit æmdi bilgi tæniz

Søzin berkitup æmdi qizg‘u mæniz. [469 qator, 128-bet]

Ma‘nosi:

Bilimli dengiz kishi nima deydi, eshit,

So ‘zni sir tutuvchi yoru‘ yuzli kishi

Ushbu baytda *æmdi bilgi tæniz* – frazema, ot komponentli frazema, bilimli dengiz - bilimdon ma‘nosini bildiradi.

æmdi qizg‘u mæniz – yorig‘ yuzli kishi frazema, ot komponentli frazema, “omadli kishi” ma‘nosini bildiradi.

3. Ravish komponentli frazemalar asar matnida 15 foizni tashkil qiladi.

Misol:

Kimun elgi bolsa budunqa uzun,

Silig bolus qilqi qilinchi tutuz [533-qator, 138-bet]

Ma‘nosi:

Kimning qo‘li uzub bo‘lsa,

Uning xulqi xush va fe‘li raftori to‘g‘ri bo‘lishi kerak.

Ushbu baytda *elgi bo‘lsa budunqa uzun* – frazema, ravish komponentli frazema, elg – qo‘l – inson a‘zosi asosida hosil bo‘lgan.

Silig bolus – frazema, ravish komponentli frazemadan hosil bo‘lgan.

4. Sifat komponentli frazemalar asar matnida 15 foizni tashkil qiladi.

Misol:

Qara bas yag‘isi qizil til turur,

Neché bas yedi bu taqi ma yeyur [952-qator, 196-bet]

Ma‘nosi:

Qora boshning yovi qizil tildir,

U qanchadan-qancha boshlarni edi.

Ushbu baytda *Qara bash yag‘isi qizil til turur* – frazema, sifat komponentli frazema, *qora, qizil* – sifatlari asosida hosil bo‘lgan.

Qora bash – rangi ko‘pincha salbiy ma‘nolarni bildirgan, *qizil til* – rang, insonning keraksiz ko‘p gapirishiga ishora qilgan.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridagi frazemalarning tarkibini kuzatish jarayonida shuni ta‘kidlash mumkinki, komponentlar 4 ta so‘z turkumi asosida hosil bo‘lgan. Ayrim frazeologik birliklarning hosil bo‘lishida inson a‘zolarining nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan frazemalar mavjud bo‘lib, bu kabi frazemalar hozirgi o‘zbek tilining oddiy so‘zlashuv uslubida ham keng qo‘llaniladi.

“Qutadg‘u bilig” asaridagi frazemalar davr nuqtayi nazaridan qadimiy hisoblanib, albatta bu kabi turg‘un birikmalar “frazema” atamasi bilan atalmagan bo‘lsa-da, jahon tilshunosligida boshqa xalqlar badiiy asarlarida ham bu kabi barqaror birikmalardan keng foydalangani haqidagi ma‘lumotlarni kuzatish mumkin.

Tilshunoslik nuqtayi nazardan yondashilganida, barcha xalqlarda bu kabi turg‘un birikmalar fikrni ta‘sirchan, obrazli ifodalashga yaqindan ko‘mak berganligi uchun bunday birikmalarga keng ehtiyoj seziladi.

Xulosa va muhokama. Sharq xalqlari madaniy, ijtimoiy hayot tarzini, davlat boshqaruv tizimidagi qarashlarni o‘zida aks ettirgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarining mazmun mohiyati bayon qilinishida asarning leksik xususiyatlari bilan bir qatorda frazemalar (turg‘un birikmalar)ning o‘rni muhimligini ko‘rish mumkin. “Qutadg‘u bilig” asari butun turkiy tillarda so‘zlashuvchi xalqlarning ham adabiy, ham tilshunoslikka oid qarashlarini o‘zida mujassam qilgan asar hisoblanadi. Asar qahramonlari nomlarining o‘zi ham ko‘chma – majoziy ma‘nodagi so‘zlar asosida qurilgan. Muallifning badiiy matn yaratishda obrazli ifodalardan, barqaror birikmalardan samarali foydalanishi natijasida asar matnining ta‘sirchan va betakror bo‘lishiga erishganligi ma‘lum bo‘ladi.

Asarning ma‘no mazmunini to‘rtta badiiy obrazlarning nomlanishi orqali ochib berishga alohida urg‘u qaratilgan. Ayrim qahramonlar nomining shakllanishida ham frazema xarakteridagi ko‘chma ma‘no yaxlitligi namoyon bo‘ladi.

Kuntug‘mish – *kun tug‘di* – ushbu holat ham frazema hisoblanadi, fe‘l komponentli frazema, kunning chiqqaniga ishora qilingan bo‘lib, ramziy ma‘noda **adolat** sifatiqa talqin qilingan.

Oyto‘ldi – *oy to‘ldi* – frazema, fe‘l komponentli frazema, to‘lgan oy ma‘nosini bildiradi, **baxt va adolat** ramziy ma‘nosini bildiradi.

O‘gdulmish – aql bilan ziynatlangan⁷, ushbu so‘z ramziy “aql” degan ma‘noni bildirgan,

O‘zg‘urmish – “uyg‘ongan” ma‘noni bildirgan, ramziy *qanoat timsoli* ma‘nosi aks ettirgan. Mazkur obrazlarning bu tarzda nomlanishida ham muallif ko‘chma ma‘nolardan foydalangan.

Ko‘rinib turibdiki, “Qutadg‘u bilig” asarida voqeliklarni badiiy aks ettirishda frazemalarning keng qo‘llanishi XI asrda ham o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Bu kabi yondashuv asarda voqelikni jonlatirishga, ekspressiv bo‘yoqdorlikni aks ettirishga xizmat qilgan va bu masalalar tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biridir.

“Qutadg‘u bilig” asarida xalq og‘zaki ijodi namunolari – maqol, matallar ko‘p o‘rinda qo‘llangan. Asar matnida barqaror birikmalar, maqol va matallar bilan bir qatorda farzemalarning o‘rni alohida ekanligini ko‘rinib turibdi. Muallifning frazemalardan

⁷<https://www.google.com/search?q=o+%27gdulmish+so+%27zining+ma+%27nosi&oq=o+%27gdulmish+so+%27zining+ma+%27nosi+&gs>

samarali foydalanishga ehtiyoj sezilishining sababi, albatta, asarda obrazlar va voqelikni jonli tarzda tasvirlashga harakat qilganligidir.

Frazeologiya tilshunoslikning bir bo‘limi bo‘lib, u tilning lug‘at tarkibidagi frazemalar haqida ma‘lumot beradi. Frazemalar esa ko‘chma ma‘noli turg‘un konstruksiya hisoblanadi.⁸

Bu borada frazemalarning tuzilishi jihatidan tilshunoslikda juda ko‘p o‘rganishlar olib borish mumkin. Bugungi kun zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklarning kelib chiqishi, uning asar matnini semantik jihatdan boyitishi frazemalarning tarixiy kelib chiqishiga bog‘liqligini inobatga olish muhim sanaladi. Tarixiy frazeologik birliklarning o‘rganilishi asar yaratilgan davr ruhini va voqeligini ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Abdullayeva V. “Qutadg‘u bilig” asaridagi frazemalarning semantik xususiyatlari // Til va adabiyot. – Toshkent, 2025. – №3.
2. Abdullayeva V. Q. (2023). YUSUF HOS HOJIBNING “QUTADG‘U BILIG” ASARINING TIL XUSUSIYATLARI, UNDA FRAZELOGIK IBORALARNI QO‘LLANILISHI TADQIQI. *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING*, 3(2).
3. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Yangi avlod, 2008. – B. 214.
4. Isaqova B. O‘zbek tili frazeologik birliklarning transformatsiyasi. Filol. fan. dok. diss. avtoref. – Samarqand, 2019.
5. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик birliklarning funksional - uslubiy xususiyatlari. Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1993. – Б.37
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент, 1966.
7. Холманова З. Бобурнома – тил қомуси. – Тошкент: Akademnashr, 2021. – B.3.
8. Холмуродова М. Ф. “Қутадғу ” лексикаси. Филол. фан. б. фалс. док.(PhD) ... дисс. – Тошкент, 2019.
9. Юсуф Хос Ҳожиб. “Қутадғу билиг”. – Тошкент: Фан, 1972.
10. Quronovna V. A. (2023). YUSUF XOS HOJIBING “QUTADG‘U BILIG” ASAR MATNIDA FRAZELOGIK BIRLIKLARNING QO‘LLANILISH SINONIMIYALARI. *Международный журнал научных исследований*.
11. Quronovna, A. V. (2024). The Sematico-Paradigmatic Structure of Phraseological Units in the Work” Qutadgu Bilig. *International Journal of Scientific Trends*, 3(5), 27-34.
12. Quronovna, A. V. (2023). YUSUF XOS HOJIBING “QUTADG‘U BILIG” ASARINING O‘RGANILISHI HAMDA ASARDAGI SOMATIK FRAZELOGIK BIRLIKLARNING QO‘LLANILISHI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 9, 174-179.
13. Hamrayev M. Ona tili. Qo‘llanma va mashqlar to‘plami, 2016. – B.96.

⁸ N.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Toshkent, 2006, B-204